

## O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Polygonaceae oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)

Andijon Davlat Pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi  
1-bosqich 103- guruh talabalari  
Toshmatova Gulyora Muhitdin qizi  
Vahobova Dilafro‘z Avazbek qizi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan Torondoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirilgan .

**Kalit so‘zlar:** Qizil Kitob, Torondoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endemik turlar , sistematika.

**Аннотация:** В данной статье приведен сравнительный анализ сем. Гречишные, включенные в 4-е издание (2009 г.) и 6-е издание (2019 г.) «Красной Книги» Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Красная Книга, сем. Гречишные, степень редкости, эндемичные виды, систематика.

**Abstract:** In this article, presents a comparative analysis of the family Polygonaceae included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** Red Book, family of Polygonaceae , degree of rarity, endemic species, systematics.

Atrof – tabiiy muhitni, uning tarkibiy qismlari bo‘lmish o‘simlik va hayvonot ola-mini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Insoniyat tabiatdan foydalanar ekan, asrlar davomida shakllangan tabiiy lanshaftlarini o‘z- gartirmoqda. Natijada, bir qator o‘simliklar va hayvon turlari kamayib yoki yo‘qolib bormoqda. Ularni muhofaza qilish maqsadida xalqaro va mahalliy “Qizil kitob” lar ta’sis etilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi hududida hozirda 4500 ga yaqin o‘simliklar mavjud. Ular orasida jiddiy muxofazaga muxtoj ko‘plab kamyob endemik va relik turlar bor. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo‘lib, O‘zbekiston florasining 10-12% ini tashkil etadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida “ Qizil kitob” ilk bor 1984-yilda ta’sis etilgan bo‘lib, unga 163 ta tur kiritilgan. Mazkur “Qizil Kitob”da nabotot olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad – jamoatchilik, mutaxassislar va davlat idoralari e’tiborini tabiat muhofazasi masalalariga jalb etish va turlar genofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat [1].

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyobligiga ko‘ra o‘simliklar 4 ta guruhga ajratiladi.



0.Yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin,

1.Yo‘qolish arafasida turgan,

2.Kamyob,

3.Son jihatdan kamayib borayotgan turlarga tavsiflanadi .

2009-yil “Qizil Kitob”iga nazar tashlasak, 324 ta tur mavjud bo‘lib, *Torondoshlar oilasi* vakillarining 5 ta turi kiritilgan. Bunda : *Mayin tukli qandim, mattey qandimi, nozik qandim, oxaktosh qandim, paletskiy qandim* mavjud. Ushbu turlarda yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar (maqomi 0) mavjud emas, yo‘qolish arafasida turgan turlar(maqomi1) -1ta, kamyob turlar (maqomi 2)- 3 ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar( maqomi3)- 1ta tur mavjud [2].

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashri bo‘yicha Torondoshlar oilasi vakillari haqida ma’lumot 1-jadval

T/r	Tur nomi	Kam yoblilik darajasi	Hayot shakli	Tarqalish mintaqasi	Tarqalish soni	Madaniylash tirish
1.	Mayin tukli qandim	2	buta	Buxoro viloyati, Qizilqumda(Dengizko‘li), Turkmaniston	Ba‘zan kichik to‘plarni hosil qiladi.	Ma’lumot yo‘q
2.	Mattey qandimi	2	buta	Buxoro viloyati, Qizilqumda(Dengizko‘li), Turkmaniston	Kichik maydonlarda soni juda kam	Ma’lumot yo‘q
3.	Nozik qandim	2	buta	Farg‘ona vodiysi: Gumxona, Oqcho‘p, Oqbel, Supatog‘, Qoraqalpoq cho‘li.Tojikiston, Baxsh vodiysi	Kichik maydonda siyrak	Ma’lumot yo‘q
4.	Oxaktosh qandim	1	buta	Farg‘ona vodiysi:So‘x va Isfara. Tojikistonda ham qisman uchraydi	Aniqlanmagan	Ma’lumot yo‘q
5.	Paletskiy qandim	3	buta	Buxoro viloyati, Qizilqumda(Dengizko‘li), Turkmaniston va Tojikiston	Kam uchraydi.Kichik to‘p hosil qiladi	O‘zPFA botanika bog‘ida o‘stirishga urinib ko‘rilgan.

“Qizil kitob”ning 2019-yil nashrida 314 ta o‘simlik turi kiritilgan bo‘lib, unda 6 ta tur (*Mayin tukli qandim, mattey qandimi, nozik qandim, oxaktosh qandim, paletskiy qandim, zokirov qandim*) Torondoshlar oilasiga mansub turlar hisoblanadi. Ushbu turlarda yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar (maqomi 0) mavjud emas, yo‘qolish arafasida turgan turlar(maqomi 1) -3ta, kamyob turlar (maqomi 2)- 2 ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar(3)- 1ta tur mavjud (3).

**O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitob”ining 2019-yildagi nashri bo‘yicha  
Torondoshlar oilasi vakillari haqida ma‘lumot 2- jadval**

<b>T r</b>	<b>Tur nomi</b>	<b>Kam yobli lik daraj asi</b>	<b>Hayot shakli</b>	<b>Tarqalish mintaqasi</b>	<b>Tarqalish soni</b>	<b>madaniylash tirish</b>
1	Mayin tukli qandim	2	buta	Buxoro viloyati, Qizilqum- da(Dengizko‘l), Turkmaniston	Ba‘zan kichik to‘plarni hosil qiladi.	Ma‘lumot yo‘q
2	Mattey qandimi	1	buta	Buxoro viloyati, Qizilqum- da(Dengizko‘l), Turkmaniston	Kichik maydonlarda soni juda kam	Ma‘lumot yo‘q
3	Nozik qandim	2	buta	Farg‘ona vodiysi: Gumxona, Oqcho‘p, Oqbel, Supatog‘, Qoraqalpoq cho‘li .Tojikiston Baxsh vodiysi	Kichik maydonda siyrak	Ma‘lumot yo‘q
4	Oxaktos h qandim	1	buta	Farg‘ona vodiysi:So‘x va Isfara. Tojikistonda ham qisman uchraydi	Aniqlanmagan	Ma‘lumot yo‘q
5	Paletski y qandim	3	buta	Buxoro viloyati, Qizilqum- da(Dengizko‘l), Turkmanistonva Tojikiston	Kam uchraydi.Kichik to‘p hosil qiladi	O‘z PFA botanika bog‘ida o‘stirishga urinish ko‘rilgan.

6	Zokirov qandim	1	buta	Buxoro viloyati:Qizilqum cho‘l stansiyasi	Kichik maydonlarda soni juda kam	Ma'lumot yo'q
---	----------------	---	------	---	----------------------------------	---------------

Ushbu 6 ta tur o‘simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etganimizda ushbu o‘simlik- larning hammasi buta ekanligi ma’lum. Ularning tarqalish soni aniqlanmagan. Bu o‘simliklarni yo‘qolib ketishiga chorva mollari boqilishi va o‘tin sifatida foyda lanishi asosiy sabab bo‘lib kelmoqda. Shunga qaramasdan muhofaza qilish choralari topilmagan. Torondoshlar oila vakillari , asosan, Buxoro, Farg’ona, Turkma nistonning qumloqlarida kichik-kichik to‘p hosil qiladi. Ularning gulqo‘rg‘oni barcha turlarida mevalayotganda pastga qarab egiladi (*mayin tukli qandimi, mattey qandim, nozik qandim, oxaktosh qandim, paletskiy qandim, zokirov qandim*). Mevalari esa yumaloq tuxumsimon uzunligi 25-30mm, eni 20-25 mm, qizg‘ish (*mayin tukli qandim*) ; deyarli sharsimon, eni 15-20mm och sariq yoki qizg‘ish (*mattey qandim*);ovalsimon yoki sharsimon uzunligi 10-15 mm, sariq yoki qizil (*nozik qandim*);cho‘ziq, oval shaklda, uzunligi 10-15mm, eni 7-10mm (*oxaktosh qandim*); elips –sharsimon eni 40-50mm(*paletskiy qandim*); deyarli sharsimon eni 10-12mm (*zokirov qandim*) kabi tuzilishga ega. Ushbu oila vakillari shox –shab bali buta bo‘lib, yo‘qolish arafasida turgan va kamyob o‘simliklar hisoblanadi. Ular tarqalgan mintaqalariga ko‘ra turli xil moslanishlarni hosil qilgan. *Mayin tukli qandim*ning ingichka qanotchalarini mavjud bo‘lib, eni 2-3mmni tashkil qiladi, *Mattey qandimi* uchun Dag‘al tuklar xos bo‘lib, 5-7mm bo‘lib, 8 qator joylashadi.*Nozik qandim*ning yupqa qanotchalarini chetlari notekis tishchali bo‘ladi. *Ohaktosh qandim*ning qanotchalarini keng nashtarsimon,sirti oddiy yoki ayrisimon tikanli bo‘- ladi. Paletskiy qandimning qanotchalarini tuxumsimon ,eni 3-5 mm tuksiz ;zokirov qandimning mevasi deyarli sharsimon, eni 10-12 mm hisoblanadi.

**Xulosa.** 2009-2019- yillar “Qizil kitob”ini solishtirib chiqar ekanmiz, bularda Torondoshlar oilasining 2- vakili *mattey qandim*ning maqomi 2009 –yil “Qizil kitob”ida “2” maqomni tashkil qilsa, 2019- yil “Qizil kitob”ida esa “1” maqomni egallab bir pog‘ona pasayganligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2009-yil “Qizil kitob”ida 5 ta tur, 2019- yil “Qizil Kitob”ida 6 ta tur kiritilgan. Demak, ush- bu Torondoshlar oilasi vakillarining yana bir turi Qizil kitobiga kiritilib, yanada muhofazaga muhtoj ekanligi namoyon qilmoqda [2].

#### Foydalanilgan adabiyot :

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” 1-jild. -Toshkent :ENK, 2009-yil (355 b)
2. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” 1-jild. -Toshkent :ENK, 2019- yil (364 b ).
3. O‘.Pratov ,M.Nabiyev O‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonaviy tizimi.- Toshkent:o‘qituvchi , 2007-yil 64 bet
4. Флора Узбекистана т.2 -Ташкент :АН УзССР 1953. 279 стр